



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: dequplling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayaviddinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonlarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнесинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalari mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA RAQAMLI VOSITALAR

**ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ И ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ**

**IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THROUGH INNOVATIVE
APPROACHES AND DIGITAL TOOLS**

Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalarning rolini tahlil qiladi. Maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, interaktiv darslar, elektron o‘quv materiallari va ma’lumotlarni tahlil qilish tizimlari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ta’lim sifati indikatorlarini aniqlash, monitoring va baholashning samarali usullari ham yoritiladi. Maqola innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli vositalarning ta’lim sifatini yaxshilashdagi amaliy ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Ochiq studiyalar, park maktablari, fraktal ta’lim, ta’lim sifati, innovatsion yondashuvlar, raqamli vositalar, elektron ta’lim, maktab ta’limi, pedagogik texnologiyalar, telekommunikatsiya vositalari, san’at, dizayn, teatr, musiqa, foto-video, STEM, robototexnika, tajriba laboratoriyasi, animatsiya studiyasi, startup.

В данной статье анализируется роль инновационных подходов и цифровых инструментов в повышении качества образования в общеобразовательных школах. Рассматриваются возможности повышения уровня знаний учащихся за счёт внедрения современных технологий в образовательный процесс, включая интерактивные уроки, электронные учебные материалы и системы анализа данных. Также освещаются эффективные методы определения показателей качества образования, мониторинга и оценки. В статье подчёркивается практическая значимость инновационных педагогических подходов и цифровых инструментов в улучшении качества образования.

Ключевые слова: открытые студии, парковые школы, фрактальное образование, качество образования, инновационные подходы, цифровые инструменты, электронное обучение, школьное образование, педагогические технологии, телекоммуникационные средства, искусство, дизайн, театр, музыка, фото и видео, STEM, робототехника, экспериментальная лаборатория, анимационная студия, стартап.

This article analyzes the role of innovative approaches and digital tools in improving the quality of education in general secondary schools. It examines the possibilities of enhancing students' knowledge levels through the introduction of modern technologies into the educational process, including interactive lessons, electronic learning materials, and data analysis systems. The article also highlights effective methods for identifying educational quality indicators, as well as monitoring and assessment practices. It emphasizes the practical significance of innovative pedagogical approaches and digital tools in improving the quality of education.

Keywords: Open studios, park schools, fractal education, quality of education, innovative approaches, digital tools, e-learning, school education, pedagogical technologies, telecommunication tools, art, design, theater, music, photo and video, STEM, robotics, experimental laboratory, animation studio, startup.

Dunyoda bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy sohalarining barqaror taraqqiyotiga ta’limning sifati bilan bog‘liq mexanizmlarini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ta’lim tizimi ilg‘or bo‘lgan dunyoning yetakchi davlatlarida ta’lim sifatini boshqarishning samarali modellarini joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda xalqaro konsepsiyalar asosida sifatni umumiy boshqarish tamoyillari orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish kabi muammolar mavjud. Ushbu model va konsepsiyalar ta’lim sifatini ta’minlash va uni baholash tizimlarini takomillashtirish, ta’lim muassasalarida sifat menejmentini yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda jamiyatdagi obyektiv jarayonlar tufayli ta’lim tizimida o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o‘zgarishlar innovatsion bo‘lib, ta’limni insonparvarlashtirish, axborotlashtirish va shaffofligini ifoda yetadi. Innovatsiyalarning yo‘nalishlaridan biri bu ochiq ta’lim g‘oyasini amalga oshirish bo‘lib, u o‘quv jarayonining funksiyalari, mohiyati, xususiyatlari, elementlari va aloqalari to‘g‘risidagi qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shaffoflik o‘quv jarayonini axborot muhiti bilan doimiy ravishda bog‘lashni, undagi ekologik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘quvchi shaxsini madaniyatga adekvat, kompleks va dinamik ravishda yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda axborot muhiti imkoniyatlari ta’lim jarayonini sinf tizimidan tashqariga chiqishga imkon beradi, bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini joriy etishga olib keladi. Ular orasida masofaviy o‘qitish, deyarli taqsimlangan o‘qitish, o‘quv jarayonini moduli tashkil etish, maktab o‘quvchilarining loyihaviy faoliyati, sinfdan tashqari ishlar, o‘quvchilar uchun individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, repetitorsiz ochiq studiyalarda o‘qitish va taqozo.

Bu telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan mashg‘ulotlar bo‘lib, unda ta’lim sub’ektlari va obyektlari fazoviy yoki vaqtinchalik masofaga ega bo‘lib, ta’lim mahsulotlarini yaratishga va ta’lim sub’ektlarining tegishli ichki o‘sislariga qaratilgan o‘quv jarayonida qatnashadilar. “Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazishda o‘quvchilar mustaqil ravishda yoki ota-onalar va o‘qituvchi, snif rahbari bilan kelishilgan holda, fanni u yoki bu darajadagi o‘rganish darajasini tanlashga haqlidirlar: asosiy yoki tezkor. O‘qitish yuklamasi ta’limning barcha darajalaridagi har bir guruh o‘quvchilari uchun yakka ta’lim yo‘nalishlarini hisobga olgan holda belgilanadi” [1]

Darsdan tashqari (ochiq studiyalarda) “mashg‘ulotlar o‘quv jarayonini tashkil qilishni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi:

- o‘qish vaqtini qayta qurish orqali;
- dastur materialini (blok) yanada intensiv o‘rganish” [2].

Darsdan tashqari o‘qitishni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, jadval har bir o‘quvchi, qaysi sinfda bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zi tanlagan narsani o‘rganishi uchun tuziladi.

Darslar hamma uchun umumiy mavzuda o‘tkaziladi. Bunday ta’lim yo‘nalishi individualizatsiya qilish vazifasini bajaradi, bolaning ta’lim tanlash huquqini ta’minlaydi va o‘quvchiga pedagogik yordam beradi. Maktab o‘quvchilari tomonidan individual o‘quv dasturini ishlab chiqish, maslahat berish, o‘qituvchilar tomonidan o‘zlarining maxsus va asosiy o‘quv kurslari o‘qituvchilari tomonidan reklama qilish, ota-onalarga belgilangan vaqt ichida variativ o‘quv dasturlarini majburiy tasdiqlash va tuzatish to‘g‘risida ma’lumot berish bilan birga olib boriladi.

O‘quvchilar tomonidan tuzilgan individual o‘quv dasturlarini tahlil qilish ta’limning yuqori bosqichida o‘quv profillarini shakllantirishga imkon beradi”.[3] Zamonaviy maktabga kelib, o‘quvchi qaysi studiyalarda va qay darajada ishlashini mustaqil ravishda hal qiladi. Studiya profillari an’anaviy bo‘lishi mumkin va ular tarkibiga fizika-matematika studiyasi, kimyo va biologik studiya, ijtimoiy fanlar va siyosatshunoslik studiyalari, adabiyot va san’at studiyalari, axborot texnologiyalari studiyalari va lingvistika studiyalari (rus va chet tillari) kiradi. Shu bilan birga, maktab parklari, masalan, haydash, kesish va tikish yoki ovqat tayyorlash uchun studiyalar, sport studiyalariga qatnashish mumkin. Maktablarda “Ochiq studiyalar” orqali maktabdan tashqari ta’lim sifati oshirishga yordam beradi.

Ochiq studiya – bu ixtiyoriylik, “ochiqlik va hamkorlik tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi, o‘quvchilarning qiziqishiga ko‘ra tashkil etilgan, amaliyotga yo‘naltirilgan ijodiy-ta’limiy maydondir. Hududlarda maktab imkoniyatlari va ehtiyojlardan kelib chiqib quyidagi studiyalar

tashkil etilishi mumkin: Ijodiy (san’at, dizayn, teatr, musiqa, foto-video); ilmiy (STEM, robototexnika, tajriba laboratoriyasi); ijtimoiy (debat, liderlik, volontyorlik studiyalari); raqamli(IT, media, bloggerlik, animatsiya studiyasi); kasbiy(hunarmandchilik, tadbirkorlik, startap studiyasi)”[4].

Tashkil etish tamoyillari:

- ixtiyoriy ishtirok
- ochiq kirish (tanlovsiz)
- o‘quvchi markazchilik
- amaliyotga yo‘naltirilganlik
- maktab–oila–jamoatchilik hamkorligi
- inklyuzivlik va teng imkoniyat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Ochiq studiyalar” quyidagi bosqichda tashkil etiladi:

1-bosqich. Diagnostika.

- o‘quvchilar qiziqishlarini aniqlash (anketa, intervyu).
- ota-onalar takliflari.

2-bosqich. Loyihalash.

- studiya rejasi va dasturi.
- mashg‘ulot formati (haftasiga 1–2 marta).

3-bosqich. Amalga oshirish.

- pedagog-murabbiylar.
- tashqi mutaxassislar ishtirokida mashg‘ulotlar.

4-bosqich. Monitoring va baholash.

- portfolio
- ijodiy ishlar to‘plami
- o‘quvchilar faolligi

5-bosqich. Kutilayotgan natijalar


- o‘quvchilarning iqtidorini rivojlanishi
- bo‘sh vaqtning mazmunli tashkil etilishi
- maktab muhitining jozibadorligi oshishi
- ijtimoiy faol va mustaqil fikrlovchi shaxs shakllanishi
- maktabdan tashqari ta’lim sifatining yaxshilanishi

Ochiq studiyalar maktabdan tashqari ta’limning innovatsion shakli sifatida o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy salohiyati va kasbiy yo‘nalishini aniqlashda yuqori pedagogik samaradorlikka ega bo‘lib, umumiy ta’lim sifatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Maktab parklari” shaffoflik “tamoyiliga asoslanadi va shu munosabat bilan ta’lim jarayonining bunday parametrlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

An’anaviy maktabda biz o‘quvchilarga baho berish va ularni taqqoslash uchun ishlatamiz, ammo fraktal tizimda bu ma’nosiz. O‘qituvchi o‘quvchiga baho bermaydi, o‘qituvchi o‘quvchining faoliyati natijasini qayd etadi. Sertifikatga muqobil taqriz bo‘lib, u o‘qituvchi tomonidan yoziladi va o‘quvchiga beriladi. Taqriz studiyalarda o‘quvchining shaxsiy yutuqlarini aks ettiradi.

Zamonaviy maktab (Modern school) – bu ijtimoiy-pedagogik tizim bo‘lib, tizimli qayta tashkil etish natijasida oddiydan murakkabga, eskilikdan yangilikka qarab rivojlangan yangi imkoniyatlarga, ta’lim va tarbiya uslublarini va vositalarini tanlash mustaqilligiga, zamonaviy tarkibiy tuzilishga, funksional vazifalarga, maqsadlarga, strategiya va taktika, ta’lim siyosatiga ega bo‘lgan yangi sifatdag ta’lim muassasasidir (1-rasmga qarang).



1-rasm. “Zamonaviy maktab”(Modern school) modeli.

Manba: Muallif ishlanmasi

Zamonaviy maktabning asosiy xislatlaridan biri, ixtiyoriy integrativ tizimlarga xos bo‘lgan hayotiy faoliyatni ta’minlash, uni harakatga keltirish va rivojlantirishdir. “Mazkur jarayonda ta’lim muassasalarini boshqarishga tizimli yondashuv, vaziyatni yondashuv, ijodiy yondashuv, refleksi yondashuv, muvofiqlashtirilgan yondashuv, etnik yondashuv, shaxsiy-faoliyat yondashuvi, milliy-hududiy yondashuv va natijalar bo’yicha boshqaruv, innovatsion yondashuv kabi yondashuvlarni qo‘llash va ulardan mazmun-mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri foydalanish maktab direktorlaridan zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar talab etishi bilan bir qatorda, muassasa faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishda, shuningdek, boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi” [5]. Mazkur yondashuvlar “boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish yo‘nalishidagi tushunchalarning metodologik asoslari bo‘lib, boshqaruv ob’ektini o‘rganishda va tahlil qilishda o‘ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differensiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalarni, ja’ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o‘z ichiga oluvchi tizim sifatida xizmat qiladi”[6]

Xulosa o‘rnida shu aytish mumkinki, ta’lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron o‘quv resurslari va interaktiv dars usullari maktablarda ta’lim jarayonini samarali boshqarish, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ularning faol ishtirokini ta’minlashga yordam beradi. Raqamli vositalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini monitoring qilish va baholash tizimlarini joriy etish, ta’lim sifatini doimiy ravishda yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagoglar va maktab rahbariyatining innovatsion yondashuvlarni qabul qilishi va qo‘llashi ta’limning sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Моисеев А.М. Качество управления школой: каким оно должно быть В. М. — М., 2001. — 160 с.
2. Матрос Д.Ш. Школа информатизации процесса обучения (Москва: центр “Педагогический поиск”, 2011) – 128 с.
3. Третьяков П.И. Оперативное управление качеством образования в школе. Теория и практика. Новые технологии. – М.: Скрипторий, 2004. – 568 с.
4. Pedagogik atamalar lug‘ati / Tuzuvchilar Djuraev R.X. va boshqalar. –T.: Fan, 2008. –195 b.
5. Abdurahmonov Q., Odegov Y. va boshqalar. “Personalni boshqarish”. Toshkent: Sharq, 1998. – 268 b.
6. Ibragimova.G.S. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini ta’lim boshqaruv jarayonini takomillashtirish texnologiyasi. // Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali. – T.: 2023. №4. — B. 81-83. (13.00.00 №17).